



Received: October 2, 2023
Accepted: December 23, 2023
Available online: December 25, 2023

Zaxiriddin Sulaymanov

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

AGIOGRAFIK YO'NALISHDAGI ASARLARNING JANR XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada musulmon Sharqi adabiyotida agiografik asarlarning vujudga kelishi, taraqqiyoti, xalq og'zaki ijodiga munosabati va ular orqali yozma adabiyotga kirib kelgan "omma uslubi" hamda bu ikki tarmoqda uchraydigan bir xil janrlar: qissa, rivoyat, hikoyatlarning badiiy xususiyatlari o'rganildi. Adabiyotda agiografik yo'nalishdagi asarlarga asos bo'lgan janrlar hamda bu janrlarning istilohiy ma'nosi va boshqa xususiyatlari nazariy jihatdan ochib berildi, shuningdek, qissa, rivoyat, hikoyat, latifa, hikmat, xabar, foyda, munojot kabi adabiy-badiiy uslubdagi janrlarning tarixiy-genetik asoslari, badiiy xususiyatlari, yaxlit kompozitsion struktura tarkibidagi vazifalari XIV asrda Oltin O'rda adabiy muhitida yaratilgan "Nahj ul-farodis" hamda "Qisasi Rabg'uziy" asarlari misolida o'rganildi.

Agiografiyaga oid qissa janrining eng yaxshi namunalari Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida uchraydi. Asar jami 72 qissadan iborat bo'lib, unda Hazrati Odamdan Muhammad (s.a.v) payg'ambarimizgacha bo'lgan davrdagi payg'ambarlar qissalari hikoya qilinadi. Asarning dastlabki "Qissayi Odam safiy alayhi-s-salom" deb nomlangan, keyingi qissa esa "Qissayi Qobil va Hobil"dir... Shu tariqa Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)gacha bo'lgan qissalar davom izchillik bilan davom etadi. Maqolada asar tarkibidagi qissalarning badiiy xususiyatlari Nuh (a.s.) qissasi orqali o'rganildi.

XIV asr chig'atoy adabiyotda agiografik asarlarning keng ommaga yetib borishida, shu davrdagi boshqa janrlar singari hikoyat janrining o'rni muhim. Bu davrdagi hikoyatlarning janriy xususiyatlari "Nahj ul-farodis" asarida keltirilgan hikoyatlar tahlili orqali ko'rsatib berildi.

Zakhiriddin Sulaymanov

PhD Student, National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulug'bek
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: sulaymonovzakhiriddin@gmail.com

A STUDY OF LITERARY GENRES USED TO COMMUNICATE HAGIOGRAPHIC THEMES AND PERSPECTIVES

ABSTRACT

The article explores the origins and evolution of hagiographic literature in the literature of the Muslim East. It examines the connection between this literature and folk oral creativity and the "mass style" that emerged in written literature through such oral traditions. Additionally, the study focuses on the literary and artistic characteristics of various hagiographic genres, including short stories, narratives, anecdotes, wisdom, messages, benefits, prayers, and others, in both theoretical and literary contexts. The article also delves into the composite structure and functions of these genres.

One of the most notable examples of the short story genre in hagiography is Rabguzi's The Story of Rabguzi, which dates back to the 14th century. It comprises 72 stories that narrate the lives of prophets from Hazrat Adam to Prophet Muhammad (peace be upon him). This article focuses on the artistic features of the narratives in this work, with a specific analysis of the story of Noah (peace be upon him).

During the 14th century in Chigatai literature, the narrative genre played a significant role in the dissemination of hagiographic works to the general public. The genre characteristics of this period's stories were analyzed through a study of the stories presented in the work Nakhul Farodis.

In The Story of Rabguzi, the stories about the hero cover various topics and are presented in a didactic manner. The narrative genre preserves the principle of historicity. Therefore, it is important to maintain the vitality of narratives and stories. Similar characteristics were analyzed in Yusuf's story using comparative, analytical, and cross-sectional methods as outlined in the article.

Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida keltirilgan rivoyatlarning mavzu-mundarijasi rang-barang bo'lib, qahramonining mo'jizalarini, uning hayotiga oid voqealar didaktik yondashuv asosida bayon qilinadi. Rivoyat janrining talabiga ko'ra, unda tarixiylik tamoyili saqlanib qoladi. Shu bois rivoyat va hikoyatlarda hayotiylik prinsipi muhim hisoblanadi. Shu kabi xususiyatlar Yusuf qissasida keltirilgan rivoyatlar tahlili orqali ochib berildi. Maqolada qiyosiy, tahliliy, chog'ishtirma metodlardan foydalanildi.

Kalit so'zlar: agiografiya, janr, holat, manqaba, manoqib, maqoma, tazkira, shajara, tarix, qissa, rivoyat, hikoyat.

Key words: hagiography, genre, case, manqaba, manoqib, maqamo, tazkira, genealogy, history, story, narrative, tale.

KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida agiografik asarlarni ilmiy-nazariy asosda tadqiq etish hamisha dolzarb vazifalardan biri hisoblangan. Epik turga mansub bunday asarlarning janr xususiyatlarini o'rganish, janrning taraqqiyot tamoyillarini aniqlash, poetik xususiyatlarini ishlab chiqish va uni milliy adabiyot sathida tadqiq etish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Agiografik asarlar yuzasidan izlanishlar olib borgan adabiyotshunos Bahodir Nazarov musulmon agiografik adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotini uch davrga bo'ladi: "Birinch davr – VIII–IX asrlarni qamrab oladi. Bu davr agiografiyasining asosiy xususiyati shuki, bunda hikoya qilinayotgan voqealar qamrab olingan davrga nisbatan yaqindir, ...shuningdek, ularda diniy aqidalar ustuvor bo'lgan... Ikkinchi davr – X asrdan boshlanib, XII asrning birinchi yarmini qamrab oladi. Bu davr musulmon agiografiyasida birinchidan, turli tilda asarlar yaratila boshlandi, ikkinchidan, tarixiylik xususiyatidan ko'ra badiiy to'qima va rivoyatchilik xususiyati, ya'ni ideallashtirishga e'tibor kuchaydi... Uchinchi davr XIII–XV asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrlarda musulmon dunyosi mo'g'il bosqinchilari zulmini boshidan kechirdi va asta-sekin bu zulmdan ozod bo'lib, madaniy hayot jonlandi, natijada agiografik adabiyotga ham yangidan ehtiyoj paydo bo'lib, o'tgan asrlarda yashagan shayxlar va avliyolarning hayoti haqida hikoya qiluvchi asarlar ko'paydi" [Nazarov, 2009; 23]. Shu bois tadqiqotning obyekti sifatida aynan XIII–XIV asrlarga oid agiografik asarlar tanlandi, chunki bu davrga mansub agiografik asarlar badiiyati ularni adabiy-badiiy jihatdan tahlil qilishga imkon beradi. Bunday asarlardan biri – "Nahj ul-farodis"dir. O'zbek adabiyotida asar haqidagi dastlabki ma'lumot professor Nasimxon Rahmonov tomonidan berilgan [Rahmonov, 2016; 29]. Keyinroq Otabek Jo'raboyev asarning mundarijasi, matni va badiiyati haqidagi o'z tadqiqotlarini e'lon qildi [Jo'raboyev, 2017; 22]. "Nahj ul-farodis" asari "Qisasi Rabg'uziy" bilan qiyoslab o'rganilgan tadqiqot ishlari ham mavjud [Kurbaniyazov, 2019; 34]. Tatar olimasi F.G. Nuriyeva ham asarning til xususiyatlariga oid izlanishlarni olib brogan [Nuriyeva, 2004; 28]. Asardagi arab garfikasi va fonemalarining ishlatilishi va ularning turkiy tildagi matnlarga moslashishi, arab tilidagi nutq qurilishining turkiy tilga ta'siri xususida

I.Salaxova tadqiqotlarini [Saloxova, 2015; 27], asardagi ismlarning qo‘llanilishi va turkiycha nashrini rus tiliga o‘g‘irish masalalari bilan shug‘ullangan I.R. Guliulinaning tadqiqotlari e‘tiborni tortadi. Turkiyada ham asarning til xususiyatlarini o‘rganishga oid bir qancha tadqiqotlarni e‘tirof etish zarur. Qozoq olimi Qidir To‘rali “Dashti qipchoq dalasidagi islomiy adabiyot (X–XV)” kitobida “Nahj-ul-farodis” asarining muallifi va nusxalari haqida izlanishlar olib borgan, ayni paytda boshqa bir qancha olimlar – T.Y. Qidir [Qidir, 2018; 33], I.I. Salaxova [Salakhova, 2015; 27] asarning muallifi va nusxalari haqida tadqiqotlarni e‘lon qilgan.

Xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot munosabati har bir xalq adabiyotining paydo bo‘lishi va shakllanishi uchun muqarrar qonuniyatdir. Ayniqsa, qadimgi va o‘rta asrlar yozma adabiyoti xalq og‘zaki ijodining ta’sirisiz taraqqiy etolmasdi. Bu qonuniyatga ko‘ra, adabiyotda ikki yo‘nalish kuzatiladi, ya’ni birinchisi – xalq og‘zaki ijodi yozma adabiyotga zamin bo‘lgan; ikkinchisi – xalq og‘zaki ijodidan muayyan maqsadda foydalanilgan. Har ikki yo‘nalishda ham yozma adabiyotning eng muhim hodisalaridan biri sifatida xalq og‘zaki ijodi uslubi, mavzusi, g‘oyasi, obrazlar tizimi kabi bir qator adabiy kategoriyalarni misol qilib keltirish mumkin. XX asrning 30-yillari o‘zbek adabiyotshunosligida “*omma uslubi*” atamasi qo‘llanila boshladi. Bunda xalq og‘zaki ijodida hamda yozma adabiyotda mavjud bo‘lgan janrlar – hikoyat, rivoyat, naql kabi janrlar nazarda tutilgan edi. Jumladan, Miyon Buzruk Oltin O‘rda adabiyotiga mansub “Nahj ul-farodis” va undan uch asr keyin bitilgan “Shajarayi turk” asarlaridagi (yuqorida ta’kidlangan) janrlar va bayon uslubidagi soddalik va boshqa xususiyatlarga asoslanib, adabiyotshunoslikka “ommaviy uslub” terminini olib kirgan edi. O‘z navbatida, mazkur janrlarning yozma adabiyotda istifoda etilishi natijasida Oltin O‘rda va Xorazm adabiy muhitidagi xalq og‘zaki ijodi haqida ham so‘z yuritish imkoni paydo bo‘ladi va XIV asrda yaratilgan aksariyat asarlar shu uslubga ekanligini e‘tirof etish muhim. Asarlardagi davr, zamon va ijtimoiy muhit tasviri ham xalq uslubiga xos va buni mazkur tadqiqotda o‘rganishga jazm etildi.

Shu bilan birga, tadqiqot mavzusi doirasida M.F. Köprülü [Köprülü, 1926], A.F. Karamanlioğlu [Karamanlioğlu, 1955], B.D. Grekov, A.Y. Yakubovskiy [Grekov & Yakubovskiy, 1956], A.G‘ofurjonova [G‘ofurjonova, 1981], X.Karamatov [Karamatov, 1993], I.Cemiloğlu [Cemiloğlu, 1994], T.R. Xo‘jayev [Xo‘jayev, 1995], B.N. Nazarov [Nazarov, 2000], N.Rahmonov, H.Boltaboyev [Rahmonov & Boltaboyev, 2003; Rahmonov, 2007], R.Toparli, M.Argunshah [Toparli & Argunshah, 2008], A.Xolmurodov [Xolmurodov, 2008], Sh.Mahmadmurodov [Mahmadmurodov, 2010], S.A. Yuldosheva [Yuldosheva, 2012], F.Abdurauf [Abdurauf, 2013], F.Attor [Attor, 2013], E.Kuyma [Kuyma, 2015], E.G. Sayfetdinova [Sayfetdinova, 2018], D.Quronov [Quronov, 2019] tomonlaridan olib borilgan izlanishlar har jihatdan muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etdi.

TADDIQOT METODLARI

Maqolada tasniflash, qiyoslash hamda adabiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Bir davrda yaratilgan agiografik yo‘nalishdagi asarlarning janr xususiyatlarini mavzu hamda badiiyat nuqtayi nazaridan mavjud belgilarni aniqlashda tasniflash metodidan

foydalanildi. Shuningdek, har bir janrni alohida olib sharhlashda, “Nahj ul-farodis” asaridagi hikoyatlarni mavzu jihatidan turlarga ajratish tasniflash, janrlarning bir-biridan farqli jihatlarini ochib berishda, rivoyat va arbain janrlarini bir-biridan farqlashda qiyoslash, nazariy fikrlarni dalillash, ya’ni hikoyat janrining spetsifik xususiyatlarini izohlashda, tadqiqot natijalarini misollar orqali ko’rsatib berish va muammoning yechimini ochib berishda tahlil metodidan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

“Nahj ul-farodis” asarida berilayotgan hikoyatdan oldin bu hikoyat ishtirok etgan faslning nomi keltiriladi. Masalan, “*Amri ma’ruf taqi naxyi munkar fazoyilining bayoni ichinda turur*” deb nomlangan faslni Imom Bag’aviyning “Mashobih” deb nomlangan kitobidan mavzuga mos Payg’ambar (s.a.v) hadisini keltirish bilan boshlaydi va uni shunday sharhlaydi: “Sharhning ma’nosi shuki, Payg’ambar s.a.v.ning aytishicha, qaysi biringiz biron yomon ishni ko’rsangiz, o’sha ishni qo’lingiz bilan o’zgartiring, yani ma’qul harakat bilan o’sha ishni bartaraf qilinglar. Agarda ma’qul harakatlar bilan bartaraf etishga kuchlaringiz yetmasa, tilingiz bilan, bu yomon ishdir, bu ishni qilmang, deb ayting. Yoki bu ishni qo’l bilan yoki til bilan bartaraf qilishga qo’rsangiz, ko’nglingiz o’sha ishdan nafratlansin” [Eckmann, 1995; 209].

Bu sharhda yomon ishlarni qanday yo’l bilan bo’lsa ham bartaraf qilish lozimligi ta’kidlangan. Ayniqsa, biror chora qolmaganda, individual tarzda bo’lsa ham, ko’ngilning yomon ishdan nafratlanishi hikoyat mohiyatidagi teranlikni anglatadi.

Hadislarni keng kitobxonlar ommasi tushuna oladigan darajada sharhlash o’z davrida Oltin O’rdaning ijtimoiy va madaniy muhitidan kelib chiqib amalga oshirilgan va hali hadislar, islomiy aqidalar yetib bormagan o’lkalarda xalq ularning ma’nosini qiyinchiliksiz tushunib olishi uchun imkoniyatlar yaratilgan edi.

“Nahjul-farodis” asari muallifi yuqoridagi hadisning mazmunini kitobxon qiyinchiliksiz tushunib olishi uchun amri ma’ruf va naxyi munkar iboralarining mazmunini izohlaydi: “*Amri ma’ruf ma’nosi ezgulikka buyurmak* (ya’ni ezgu ishlarga da’vat qilmoq – Z.S.) *bo’lur taqi nahyi munkar ma’nosi yomonlikdan yig’maq* (ya’ni yomonlikdan qaytarmoq – Z.S.) *bo’lur*”.

Bu davrda yaratilgan agiografik yo’nalishdagi asarlarni ifodalovchi janrlarni mavzu hamda badiiy xususiyatlariga ko’ra ikki guruhga ajratish mumkin: 1) esdalik-memuar tipidagi janrlar: *sira, holat, tabaqot, manqaba, manoqib, maqoma, tazkira, risola, shajara, tarix*; 2) adabiy-badiiy uslubdagi janrlar: *qissa, rivoyat, hikoyat, latifa, hikmat, xabar, foyda, munojot* kabi. Ushbu agiografik janrlarning mavzu yo’nalishi, syujet, kompozitsion qurilishi ham bir-biridan farq qiladi. Birinchi guruhga mansub janrlardan dastlabkisi “sira” hisoblanadi.

Payg’ambarimiz hayoti va faoliyati, ko’rsatgan mo’jizalari haqida “sira” hamda “tazkirat ul-avliyo”larda uchraydi. “Sira” (ko’pligi siyar) – arabcha so’z bo’lib, 1) biografiya; 2) hayot tarzi; yaxshi xulq-atvor; yaxshi axloq; 3) obro’-e’tibor; 4) tarix, hikoya yoki Muhammad s.a.v. ning umrlari, siyratlari” [Baranov, 1962; 486]. Musulmon agiografiyasiga oid dastlabki asarlar “sira”lar hisoblanadi va bunga oid asarlarning birinchisi “Sirat un-nabi”dir. “Janr nomini anglatuvchi “sira” istilohi

(ko‘plik shakli siyar) – yo‘l, hayot tarzi kabi ma’nolarni anglatadi. “Sira” – musulmon tarixnavisligining, payg‘ambar Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi alohida janrdir. Bu so‘z payg‘ambarning hayoti haqidagi asar janrini anglatuvchi istiloh sifatida ilk bor Ibn Hishom (834) tomonidan Ibn Is‘hoqning (704–767) Muhammad alayhissalom hayoti va faoliyati haqidagi asarini tahrir qilish jarayonida ishlatilgan “ya’ni bu kitob Alloh rasulining hayoti bayonidir” deb qayd etilgan” [Nazarov, 2009; 19]. Lekin bu janr badiiy adabiyotda uchramaydi, ilk islom davrida vujudga kelgan diniy-tarixiy asarning umumiy nomi hisoblangan. Bu yo‘sindagi asarlarda badiiyat belgilari kam, tarixiylik muhim hisoblangan. Masalan, Voqidiyning (747–823) “Kitob al-mag‘oziy”, Ibn Is‘hoq va Ibn Hishomning “Siyrat Rasul Alloh” (“Alloh elchisining hayot yo‘li”) kabi asarlari bunga yorqin misol bo‘la oladi, ushbu turdagi asarlardan keyinchalik agiogarfik asarlar bitishda unumli foydalanilgan.

“Tabaqot (tabaqaning ko‘pligi; “qatlam”, “avlod”, “daraja”) – muayyan vaqt oralig‘ida yashagan shaxslar, “avlodlar tarjimai holi” (biografiyasi). Arab tarixshunosligida tabaqot biografik janrning maxsus tarmog‘ini tashkil etadi va unda materiallar xronologik tartibda, avlodalar bo‘yicha, eng dastlabkisidan so‘ngisigacha (Muhammad s.a.v ning safdoshlari – sahobalar, so‘ng ularning shogirdlari va b.) joylashtiriladi... Bizgacha tabaqot turida yetib kelgan ilk asar Ibn Sa’d (784–845) ning “Kitob at-tabaqot al-kabir” asaridir” [Husniddinov, 2004; 219]. Lekin bu turdagi asarlarda muqaddas shaxslar keltirilgan bo‘lsa-da, tarixiylik yetakchilik qiladi. Ularda agiografiyaga oid ayrim jihatlar mavjud.

Bundan tashqari, ya’na bir nechta janr, shu jumladan, manoqib janri ham mavjud. “Manoqib” (arab. – fazilatlar) – tasavvufiy tushuncha. Ma’lum bir avliyoning fazl va martabasini maqtab, ta’rif-tavsif qilish va shu haqidagi risola yoki asar tushuniladi. Masalan, “Manoqibi Xoja Ahror” (Xo‘ja Ahror tarifi), “Manoqibi Shoh Abdulloh” (Shoh Abdullohning tarifi va tavsifi)” [Husniddinov, 2004; 219]. Manoqiblar tasvirlanayotgan shaxsning hayot yo‘li bilan tanish bo‘lgan kishilar: shogirdlari, maslakdoshlari, tanishlari tomonidan yoziladi. Bunday asarlarni yaratishdan maqsad, avvalo, din peshvolarining qilgan ishlari va hayot yo‘lini kelajak avlodga yetkazish hamda xotirada saqlab qolish bo‘lgan. Adiblar tasvirlanayotgan shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini tasvirlashga harakat qilganlar. Shuning uchun ham bunday asarlar tarixiy asarlarga yaqin turadi, badiiylik belgilari kamroq bo‘lgan xotira asar hisoblanadi. “Taboqat” janri ham o‘z xususiyatlariga ko‘ra mazkur janrga yaqin turadi. Agiografik janrlardan ya’na biri – “maqomat”dir. Bu janr ham yuqoridagi janrlar sirasiga kiradi. Farqli jihati – maqomatda shayx yoki avliyoning ulg‘ayish, yuksalish, kamolotga yetish darajalari aks ettiriladi. Maqomat janri xususiyatlari haqida B.Nazarovning tadqiqotlarida batafsil ma’lumot berilgan.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida agiografik yo‘nalishdagi tazkiralalar ham ko‘p uchraydi. “Tazkira (ar. zikr etish, tilga olish, eslash) – sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan adabiy-tanqidiy janr. Tazkiralarda shoirlarning hayoti va ijodi haqida muxtasar ma’lumotlar zikr etilib, ularning asarlaridan namunalar (odatda, bir necha bayt hajmida) keltiriladi va ijodiga umumiy tarzda baho beriladi. Adabiyot tarixida

shoirlargina emas, balki olimlar, avliyolar haqidagi tazkiralalar ham yaratilgan” [Quronov va boshq., 2013; 387]. Bunga misol qilib Navoiyning “Majolis un-nafois” – shoirlar tazkirasi hamda “Nasoyim ul-muhabbat” – avliyolar haqidagi tazkiralarni keltirish mumkin.

Shajara – lugʻaviy maʼnosi daraxt, daraxtning yerdan yuqori qismi maʼnosini anglatadi. Istilohiy maʼnoda tazkiraning bir turi boʻlib, u muayyan nasab sulolasi yoki maʼlum bir siyosiy, ilmiy, ijodiy, amaliy guruh, toifa, maktab namoyondalari silsilasi ijtimoiy hayotiga doir maʼlumotlar majmuidan iborat. Agar shajarada muayyan mazhab namoyandalari yoki tariqat pirlari silsilasi, ularning diniy va dunyoviy mavzudagi ibratli fazilatlar hamda faoliyati, yaʼni muqaddas tushunchalarning muayyan zotlarda zohir boʻlishi yoritilgan boʻlsa, uni agiografik asar sifatida baholash mumkin.

Taʼrix – biror-bir shaxs yoki voqea haqida yoziladi. Agar u biror muqaddas zot toʻgʻrisida boʻlsa, agiografiyaga taalluqli deb hisoblash mumkin.

Ikkinchi guruhga mansub adabiy-badiiy uslubdagi agiografik janrlarning koʻpchiligi alohida asar shaklida uchramaydi, balki muayyan diniy-didaktik asar tarkibida kelib, asarni badiiy jihatdan boyitishga hamda mazmun-mohiyatini toʻliqroq ochib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun bu janrlarni XIV asrga oid agiografik asarlar tarkibida oʻrganildi. Bunday janrlardan biri “qissa”dir. Qissa – eng faol agiografik janrdir. Qissa haqidagi dastlabki nazariy qarashlar Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻotit-turk” asarida keltirilgan. Muallif asarda bir qancha atamalarni keltirib, “*sav – qissa. Qadimgi voqealardan xabar berish, aytish*” [Qoshgʻariy, 1963; 168] yoki “*risola, xat, kichik kitobcha... soʻz, nutq*” [Qoshgʻariy, 1963; 168] deb keltirgan. Qissa janr sifatida xalq ogʻzaki ijodidan oʻsib chiqqan, atama sifatida (arabcha) hikoya, biror shaxs haqida soʻzlash kabi maʼnolarni ifodalaydi. Adabiyotshunoslikka oid lugʻatlarda quyidagicha taʼriflanadi: “Qissa (ar. *قصص* – hikoyat, sarguzash) – 1) xalq ogʻzaki ijodida keng tarqalgan voqeband xarakterdagi, qahramon hayoti va sarguzashtlarini hikoya qiluvchi rivoyaviy asar... Oʻzbek adabiyotida paygʻambarlar va avliyolar hayotidan hikoya qiluvchi rivoyaviy asar ham qissa deb atalgan (mas., Rabgʻuziy – “Qisas ul-anbiyo”). 2) epik turning hikoya va roman qatoridagi uchta asosiy janrdan biri, povest” [Quronov va boshq., 2013; 3]. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixida birinchi turdagi “Qisas ul-anbiyo”lar juda koʻp uchraydi.

Agiografiyaga oid qissa janrining eng yaxshi namunalari XIV asrda yozilgan “Qisasi Rabgʻuziy”da uchraydi. Asar jami 72 qissadan iborat va unda Hazrati Odamdan Muhammad (s.a.v) paygʻambarimizgacha boʻlgan davrdagi paygʻambarlar qissalari hikoya qilinadi. Asarning dastlabki qissasi “Qissai Odam safiy alayhi-s-salom” deb nomlangan boʻlsa, keyingi qissa “Qissayi Qobil va Hobil” hisoblanadi, shu tariqa Paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v)gacha boʻlgan qissalardan iborat.

Shis haqidagi qissadan boshlab asardagi qissalarni bogʻlab turuvchi timsol Muhammad alayhis-salom faol koʻzga tashlanadi. Keyin Hazrat Umar va Imom Shayx Joʻybori haqidagi ikki hikoyat keltiriladi. Soʻng Idris alayhissalom haqidagi qissa va undan keyin juda mashhur boʻlib, xalq ogʻziga tushgan – Qissayi Nuh nabi alayhis-salom qissasi keltiriladi. Unda aytilishicha, Nuhga odamlarni yakkaxudolik diniga daʼvat etish buyuriladi. Itoat etmaganlar uchun toʻfon haqida bashorat beriladi. Keyin

o'g'illari Xom, Som va Yofasning musulmon bo'lishi, yana bir o'g'li Kan'onning otasi da'vat etgan diniga kirmasdan kofir bo'lgani, oqibatda uni to'fon halok qilgani haqida hikoya qilinadi. Shundan keyin Nuh Alloh taoloning buyrug'i bilan kema yasaydi va hamma hayvonlardan bir juftdan kemaga kiritadi. Nuh haqidagi voqealar diniy manbalarda ham uchraydi. Biroq bu qissa badiiy jihatdan to'yintirilgan va kengroq berilganligi bilan xarakterlidir. Shu o'rinda Rabg'uziy o'z asarida tilga olgan Nuh payg'ambar timsolining Sharq she'riyatida tutgan o'rni va kirib kelishi haqida qadimiy kitoblarimizda juda ko'plab rivoyatlar bitilgan. Buni "Qisasi Rabg'uziy" asari misolida ko'rib chiqsak.

Kun tug'ardin kun botarg'a Nuh yalovoch da'vati,
Ellik o'ksuk ming yil erdi ul risolat muddati.
Kecha-kunduz o'zi yolg'uz qazg'u, emgak yuklanib,
So'z eshitmaz kofir aro kunda ortdi zahmati.
Haqqa "rabbi lotazar" teb yalvorib qildi duo,
Bu ijobatda duodin qirq yil edi muhlati.
Din uchun ko'p qin tortib yuritu haq yorliqni,
Bizga so'kun emgak ichra qolmadi hech toqati.
"Vasna al-fulka" amri birla yo'ndi uch qat bir kemi,
Ani mindi yetdi ersa xalqqa to'fon haybati,
Yag'di yamg'ur, esdi yellar, ostin-ustun olti oy,
Ko'rsa mundog' mundin ortiq mavlomizning qudrati,
O'zi qoldi uch o'g'il ham uch kelinlar yetagu,
Barcha o'ldi yuvib tugandi kufr-u zulmat bid'ati [Rabg'uziy, 1990; 39].

Bu misralarni o'qiganimizda, ko'z o'ngimizda odamlar boshiga kelgan balo – "To'fon" voqeasi gavdalanadi. Bunda kofirlarga qarshi kurashgan Nuh alayhissalom da'vati, xalqning Allohga bo'lgan ishonch-e'tiqodini yetkazish uchun ko'p zahmatlar chekib, kofirlarning tuhmatiga uchrashi va Allohdan To'fon balosini yuborishini so'rashi gavdalanadi. Haftalab, oylab yog'gan yomg'ir yer yuzini parchalab hech buyumdan nom-nishon qolmaydi. Allohga, uning so'zlariga ishonmay suvda g'arq bo'lgan kofirlar boshiga tushgan balo keyingi avlod uchun ham yetarli saboq bo'lishini xalq tasavvurlariga tayangan holda she'riyatdagi muhim an'analarga bog'lanib taraqqliy etadi.

Nuh (a.s.) obrazi mumtoz shoirlar asarlaridan mustahkam o'rin olgan. Tadqiqodchi olim T.Xo'jayev Nuh obrazining poetik belgilari va ular talqinidagi an'anaviylik haqida fikr yuritib, XV asr adiblari ijodida Nuh obrazi ikki belgisi, ya'ni to'fon va uzoq umri orqali namoyon bo'lgan holda tasvirga olinishini ta'kidlaydi. Demak, mumtoz shoirlarimizga yaxshi ma'lum bo'lgan bu mavzu ular asarlarida badiiy talqin etilaveradi.

Hikoyat – musulmon Sharqi adabiyotidagi o'ziga xos bir adabiy hodisa. U voqebandlikka asoslanadi. Ya'ni hikoyat epik xarakterga ega bo'lishi shart. Hikoyat alohida janr emas. Odatda, mumtoz adabiyotda hikoyat muayyan asar tarkibida keladi. Shuning uchun "hikoyat" atamasini hozirgi ma'nodagi "hikoya" atamasi bilan bir xil deb tushunish kerak emas. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "Hikoya" va

“Hikoyat”ga alohida-alohida ta’rif berilgan. “Hikoya – mustaqil adabiy janr, ya’ni: “badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar” [O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005; 331]. Biroq uning yuzaga kelishida hikoyatlarning sezilarni o‘rni va ta’siri bor. Boshqacha aytganda, hikoya – hikoyatning ravnaqi natijasida yuzaga kelgan janr. Chunki hikoyatda ham, xuddi hikoyadagi kabi, nisbatan kichik bir voqelik tasvir va bayon obyekti qilib olinadi. Adabiyotshunoslikda hikoya janri keng o‘rganilgan. Biroq forsiy va turkiy adabiyotdagi hikoyat xususiyatlari o‘rganilgan tadqiqotlar u qadar ko‘p emas.

Forsiy va turkiy mumtoz adabiyot namunalarida hikoyatlar asar ichidagi asar tarzida keladi. Yani hikoyatdagi syujetning asosiy syujet voqealariga bevosita aloqadorligi bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, aksariyat hollarda asosiy asardagi biror g‘oya tarbiya uchun illyustratsiya vazifasini o‘taydi. Ya’ni hikoyat o‘sha fikr-g‘oyaning hayotiy isboti uchun keltiriladi yoki tushunish qiyin bo‘lgan badiiy voqelik u orqali izohlanadi. Hikoyatda asosiy asar qahramonlariga bog‘liq bo‘lmagan butunlay boshqa qahramonlar ishtirok etaveradi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida hikoyat maqolasida bu adabiy hodisaga nisbatan mujmal ta’rif berilgan. “Hikoyat – Sharq va Janubi-sharqiy Osiyo xalqlaridagi adabiy termin. Har qanday she’riy va nasriy asarni, ko‘pincha voqeaband asarni anglatadi. Tor ma’noda muallifi yo‘q yozma nasriy epos” [O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005; 331]. Birinchidan, bu ta’rifdagi “she’riy asar” ifodasi u qadar to‘g‘ri emas. Chunki g‘azal, ruboiy, qit’a, tuyuq va boshqa lirik janrlar namunalari ham she’riy asar hisoblanadi. Lekin ularga nisbatan “hikoyat” atamasini qo‘llab bo‘lmaydi. Ikkinchidan, har qanday nasriy asarni ham hikoyat deb bo‘lmaydi. Chunki lirik nasriy asarlar ham bor. Uchinchidan, “ko‘pincha vaqt voqeaband asarni anglatadi” deyish o‘rniga “hamma vaqt voqeaband asarni anglatadi” deyish to‘g‘riroq bo‘ladi. To‘rtinchidan, hikoyat deganda muallifi yo‘q yozma nasriy epos tushunilmaydi, chunki yozma adabiyot namunalarining aksariyati o‘z muallifiga ega. Ehtimol, aniq muallif ta’rifidan yozma ravishda yaratilgan hikoyatlarga asos bo‘lgan voqelik og‘zaki adabiyotdan olingan, xalq orasida rivoyat sifatida tarqalgan syujetga asoslangan bo‘lishi mumkindir. Biroq u muayyan muallif tomonidan bitildimi, muallifi aniq hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hikoyatga quyidagicha ta’rif berish mumkin: Hikoyat – ko‘hna adabiy janrlardan biri bo‘lib, unda qahramonning hayotidagi bitta yoki bir nechta voqea tasvirlanadi. Ba’zan bu janrda hikoyachi obrazi ham ishtirok etadi. Hikoya esa mumtoz adabiyotdagi hikoyatga nisbatan hajman katta bo‘lib, kompozitsion jihatdan voqealarning kengaytirilgan shaklidir. Unda voqealar bayoni ham davomli bo‘ladi, syujetning barcha qismlari amal qiladi.

“Nahj ul-farodis”dagi voqealarning bayon uslubi, obrazlar tizimi, muallifning voqealar va obrazlarga munosabatiga ko‘ra aksariyat hikoyatlar voqeiy hikoyatlar ekanligini, ushbu hikoyatlar muallifi esa Mahmud Alining o‘zi ta’kidlashimiz muhim. Chunki birinchidan, mazkur asardagi hikoyatlarda tarixiylik tamoyili aniq ko‘rinadi, ikkinchidan, didaktik mazmun asosiy o‘rinda turadi, uchinchidan, hikoyatlarning tuzilishi va bayon qilish usuludagi soddalik hamda har bir qismining aniq ifoda topishi Oltin O‘rda o‘zbek adabiyotidagi hikoyat janrining asosiy belgilaridir. “Nahj

ul-farodis” asaridagi hikoyatlarni mavzu jihatidan quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Axloqiy-ta’limiy hikoyatlar.
2. Ijtimoiy mazmundagi hikoyatlar.
3. Mo’jizaga oid hikoyatlar.
4. Tush ta’rifi va bashoratga oid hikoyatlar

Tadqiqotchi Qurboniyazav Maqsud ham “Qisasi Rabg’uziy”dagi hikoyatlarni shunga yaqinroq tarzda tasniflaydi [Kurbaniyazov, 2019; 61].

Umuman olganda, “Nahj ul-farodis” asaridagi hikoyatlarning barchasida axloqiy-ta’limiy mazmun bor, biroq biz asardagi muayyan hikoyatlarning ushbu turga mansub bo’lishi mumkinligiga e’tibor qaratdik va ularni alohida guruh sifatida ajratdik, bunda umumiy tushunchalarni mezon qilib oldik.

XIV asr Oltin O’rda adabiyotida agiografik asarlarning keng ommaga yetib borishida boshqa janrlar singari hikoyat janrining ham ahamiyati ham katta va buning sababi – ushbu janrning soddaligi hamda tushunish osonligidadir. Hikoyat janri diniy-ma’rifiy asarlar rivojida va ularning kitobxonga yetib borishida muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki xalq orasida diniy-didaktik g’oyalarni targ’ib qilishda badiiy jihatdan boyitilgan, kishida estetik zavq uyg’atadigan asarlarni yaratish manfaatliroq bo’lgan. Bunday asarlar rivojiga hokimiyat tepasidagilar ham homiylik qilgan. “Nahj ul-farodis” asarining tuzilishi va uning yozilishi, manbalari haqida professor N.Rahmonov “O’zbek adabiyoti tarixi” qo’llanmasida batafsil ma’lumot bergan [Rahmonov, 2016; 177].

Asardagi hikoyat janrining o’ziga xos turlari, shu jumladan, payg’ambar hamda xalifalarning hayoti va faoliyati bilan bog’liq voqeyiy hikoyatlar muhim o’rin tutadi. Ammo hikoyatlarning qaysi biri biror aniq manbadan olingan, qaysi biri og’zaki rivoyatlardan kiritilgan va qaysi biri muallif ijodining mahsuli – bularni aniqlash birmuncha murakkab. Zotan, “Nahj ul-farodis” asarida hadislarni keng ommaga sharhlab yetkazish, tushuntirish natijasida yuzaga kelgan rivoyat va hikoyatlarning har biri insonda muayyan g’oyani shakllantirishga xizmat qilgan. To’g’rilik, halollik, rahmdillik, umuman olganda, juvonmardlik kabi fazilatlar ushbu hikoyatlarda yetakchilik qilgan. “Nahj ul-farodis” asari muallifi hikoyatlarni keltirishdan oldin o’zi asoslangan hadislarning manbalarni ko’rsatib o’tadi. Asarning birinchi bo’lim, to’rtinchi faslidan “Payg’ambar s.a.v. ning Makkadan Madinaga chiqmoq bayoni ichinda turur” deb nomlangan hikoyatga e’tiborni qarataylik. Bu fasl imom “Nishob ul-axbor” kitobidan olingan bir hadisni keltirish bilan boshlanadi. Bu kitob muallifi Abul Alayi Ushiy hisoblanadi. Hadis arabcha keltirilgan va ma’nosi quyidagicha izohlangan: “*Qaysi bir mo’min va muvahhid g’ariblikda o’lar bo’lsa, Haq taolo o’sha qulga shahidlar savobi ro’zi qilur, yana qabr azoblaridan saqlaydur*” [Eckmann, 1995; 14]. Hadisni mazkur hikoyatning annotatsiyasi deb aytish mumkin. Hadisdan so’ng Abu Jahl qurayshlarni bir uyga yig’ib Muhammad s.a.v.ni yo’q qilishga oid reja tuzishi va bu yig’inga Iblisning odam qiyofasida (Shayx Najdiy) tushib Muhammadni qanday o’ldirishni o’rgatgani, Jabroil a.s.ning Rasulullohga bu haqida xabar bergani va Makkadan Madinaga Abu Bakr hamrohligida hijrat qilgani va Payg’ambar (s.a.v.) ning safar chog’idagi yovga ko’rsatgan karomatlari beriladi, ya’ni: “*Andin so’ng*

Peyg'ambar 'as baqar, bir atlig' kimerse ko'rundi. Qachan kim ol atlig' yavuuq keldi erse, bildiler kim bizke kelur tep. Peyg'ambar 'as aydi: Ya Rebbi, ani tutgil! Temish erdi. Atning adaqlari yerdin chiqti taqi ol kimerse qayitti" [Eckmann, 1995; 15]. Shuningdek, ilonning salom berishga chiqishi, o'rgamchak g'orni berkitgani haqida, suti yo'q qo'yni sog'ib ko'p sut sog'gani haqidagi hikoyatlar mo'jizaviy hikoyatlarga kiradi.

Asardagi bu parchani N.Rahmonov voqeiy hikoyat janriga mansub deb qarab, sarguzasht janrining ayrim qirralari bu hikoyatga ta'sir etgani haqida so'z yuritadi [Rahmonov, 2016; 177]. Shu borada ish olib borgan Qurboniyazav Maqsud esa "Nahj ul-farodis"dagi voqealarning bayon uslubi, obrazlar tizimi, mualliflarning voqealarga va obrazlarga munosabatiga ko'ra, asardagi aksariyat hikoyatlarni voqeiy hikoyat deb qarash tarafdoridir. Unga ko'ra hikoyatlarning muallifi Maxmud Alining o'zidir. Zotan, birinchidan, tarixiylik tamoyili mazkur asardagi hikoyatlarda aniq ko'zga tashlanadi, ikkinchidan, didaktik mazmun asosiy o'rinda turadi, uchinchidan, hikoyatlarning tuzulishidagi va bayon usulidagi saddalik va har bir qismining aniq ifodasi Oltin O'rda o'zbek adabiyotidagi hikoyat janrining asosiy belgilaridir. Hikoyatlarda diqqat qaratilgan voqealarning ishonarliligi "Nahj ul-farodis" muallifi Mahmud Ali Ibn as-Saroyining adabiyotshunoslikdan, xususan, qissa, rivoyat va hikoyat janrlaridan va ular o'rtasidagi farqlardan xabardorligini ko'rsatadi. Mahmud Ali Rabg'uziydan farqli ravishda biror o'rinda hikoyat atamasini adabiy termin sifatida (boshqa janrlarning nomini) qo'llamaydi, ammo keltirilgan parchalarga, ya'ni hikoyatlarning har biriga mustaqil asar sifatida qaraydi, har bir hikoyati boshlanma, voqealar rivoji va tugallanmadan iborat.

Mo'jizaga oid hikoyatlar "Nahj-ul-farodis" asarining birinchi bobida ko'proq keltirilgan. Bobning beshinchi faslda Payg'ambarimizning mo'jizalariga oid bir qancha karomatlar keltirilgan: "Bu kafirlar munung teg ukush mu'jizalar ko'rdiler, taqi iman kelturmediler. Peyg'ambarqa jadu tediler. Bir kun taqi bir kafir susmar kelturdi: Ya Muhammed, eger susmar sening peyg'ambarliqiga tanuqluq berse, men sanga imanurmen tedi erse, peyg'ambar 'as' aydi: Ey susmar, men kim tururmen beyan qilg'il! Temish erdi. Susmar fasih til birle aydi kim: (kalimayi shahodat keltiradi) Yana bir 'Arab bir kun ivuq kelturdi. Ol taqi andag'-oq tanuqluq berdi. Yana bir kun kafirlar aydi: Ya Muhammed, bu hurma yig'achi yerindin qongrulup kelsun taqi sanga selam bersun temish erdi. Peyg'ambar 'as' taqi ol daraxtni undemish erdi. Ol daraxt yerindin qongrulup keldi taqi Peyg'ambar 'as'qa tevazu birle selam qildi. Yana sahabalar ukush boldi erse, Peyg'ambar 'as'qa minbar qilu berdiler va'z qilmaq uchun. Qachan kim Peyg'ambar 'as' ol minbarqa ashti erse, mubarek arqasini tayagan o'redin ingremek avazi chiqti. Jumle sahabalar eshittiler" [Eckmann, 1995; 173]. Bu fasldagi hikoyat nomining o'ziyoq uning mo'jizaga oid hikoyat ekanligini ko'rsatadi. Hikoyatda umumiy bir nechta mo'jizalar keltirilgan. Fasl so'ngida qaysi payg'ambarlarga Olloh tomonidan mo'jiza ko'rsatish berilganligi aytiladi.

Oltin O'rda davri adabiyotida uchraydigan eng ko'p kichik nasriy janrlardan biri – rivoyat. Bu so'z arabchada "*hikoya qilmoq*" ma'nosini ifodalab, inson faoliyatiga bog'liq voqea va hodisalarni badiiy qayta yaratish asnosida, ba'zan esa real tasvirlovchi

og‘zaki hikoya, qissa. Hajmi qisqa, ikki yoki uch epizoddan tashkil topadi. Shuning uchun ham bu janrga aniq qilib ta’rif berish biroz mushkulroq. Sababi – XIV asrga oid asarlarda, xususan, “Nahj ul-farodis”da ayrim qissa va hikoyatlarga nisbatan ham rivoyat atamasi ishlatilgan. Ya’ni muallifdan oldin kim tomonidandir aytilgan qissa yoki hikoyatni adib qayta ishlab, asariga kiritib ketadi va bunda rivoyatning muallifini ham keltirib o‘tadi: “Abu Hurayra raziyallohu anhu...” (173-b.) kabi. Rivoyat asosida voqelik va tarixiy shaxs bilan bog‘liq hodisalar yotadi. Rivoyatlar afsonalardan hayotga yaqinligi bilan farqlanadi. Hikoyatlardan farqi shundaki, agar rivoyatda biror shaxs, joy yoki narsa nomi bilan bog‘liq bo‘lgan qadimiy voqea-hodisa haqida so‘z borsa, hikoyatda o‘tmishda sodir bo‘lgan biror ibratli voqea tanlab hikoya qilanadi. Rivoyatlar tarixiy dalil va isbotga ega bo‘ladi. Rivoyat xalq og‘zaki ijodiga xos janr hisoblansa, hikoyat yozma adabiyot namunasidir.

Rivoyatlar o‘zida aks ettirgan voqea bayoniga ko‘ra epik hisoblanadi. Ular hajman qisqa, ifodalanayotgan voqea lavhalarining son jihatdan chegaralanganligi bilan xarakterlanadi (aksariyat rivoyatlar bitta voqeani qamrab oladi). Rivoyatda badiiy tasvirga ortiqcha urg‘u berilmaydi, chunki unda voqea bayoni ustuvor hisoblanadi.

Mahmud Alining “Nahj ul-farodis” asarida keltirilgan rivoyatlar mavzu jihatidan turlicha, hajman hikoyatdan ko‘ra kattaroqdir. Rivoyatda qahramonning mo‘jizalari, uning hayotiga oid voqealar bayon qilinadi. Asosan asarning ikkinchi va uchinchi boblarida rivoyatlar keltirilgan. Biroq keltirilayotgan rivoyat va hikoyatlarni bir-biridan farqlash biroz mushkul, sababi – muallif keltirilayotgan janrning hammasiga ham rivoyat yoki hikoyat deb nom bermagan. Ayrim hollarda bir voqeaga janriy jihatdan ikki nom berilgan: “Abu Hurayra raz.hu rivoyat qilur Peyg‘ambardin ‘as’ xabar beru yorlaqar: Qay-u mu‘min va muvahhidning qizil altuni bo‘lsa yo taqi kumushi bo‘lsa taqi zakotini edo qilmasa, qiyomat kun bo‘lsa ol altinni taqi kumishni taxta qilg‘aylar taqi tamug‘ o‘ting‘a qizdirup bu zekot bermaganlarining altininga taqi yanlaring‘a taqi orqalaring‘a bosqaylar. Tegma bir ol qizmish taxtlar so‘g‘usa, yana taqi tamug‘ o‘ting‘a qizdirg‘aylar anchaqa tegi kim ‘Arasot xalqining hisobi tamom bo‘g‘uncha. Bu ‘azob ve ‘uqubat ol qiyomat kuni ichinde bolg‘ay kim aning bir kuning miqdori dunyo kunlaridin ellig ming yil miqdorincha bo‘lg‘ay. Andin so‘ng munlarga fermon kelgay. Ba‘zilaridin Haq te‘olo ‘afv qilip uchtmohqa barsunlar, tegay taqi ba‘zilaring‘a tamug‘qa barsunlar, tegay. Yana ayitg‘aylar kim tevelerindin zekotini bermemish bolg‘ay, anlarni ‘Arasotning bir keng sahrosing‘a kelturgeyler taqi yuzun kemishgeyler taqi tevelerke fermonlag‘aylar kim bu zekot bermegen kishini oyoqlaringiz biele basing taqi tishlaringiz birle isiring, tep. Anlar taqi bu kishike ‘azob taqi ve ‘uqubat qilg‘aylar ‘Arasot xalqining hukmi tamom bo‘lg‘incha. Ol kun kim aning bir kuni dunyoning ellig min yilinch bo‘lg‘ay. Qachon kim ‘Arasot xalqining hisobi tamom bolsa, munlarqa taqi fermon kelgey. Ba‘zilari uchtmohqa barg‘aylar, ba‘zilari taqi tamug‘qa barg‘aylar, tedi. Qoy eyileringe taqi mundag‘oq hukum bolg‘ay. Sigir eyileringe taqi mundag‘oq hukum bo‘lg‘ay, tep aydi. Bu hadisdin ma‘lum bo‘ldi kim zekot bermegenlerke ulug‘ ‘azob ve ‘uqubat bolg‘ay, tep aydi” [Eckmann, 1995; 216]. Asardan keltirilgan parchadan ma‘lum bo‘ladiki, Mahmud Ali dastlab rivoyat, xulosa qismida esa hadis atamasini qo‘llaydi. Demak, hadislarni

tushuntirish uchun uning mohiyatini saqlagan holda kengroq bayon qilib berish yoki sahobalarning yodida qolgan payg‘ambarimiz bilan bog‘liq xotiralarini *rivoyat* deb atasak bo‘ladi. Shuningdek, asarda har qanday og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan hikoya, qissa va hadislariga “rivoyat qilur” birikmasi qo‘llanilgan va u, asosan, hadislarini aytuvchi roviydan keyin qo‘llangan. Bundan kelib chiqadiki, roviylar tomonidan aytilganligi uchun ham “roviy” so‘ziga nisbatan rivoyat atamasi ishlatilgan. Hadisga berilgan ta’riflarda unga nisbatan ham rivoyat atamasi qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin: “Hadis – (arab. – “xabar”, “yangilik”), hadislar – Muhammad (s.a.v.)ning aytgan so‘zlari, qilgan ishlari, ko‘rsatmalari to‘g‘risidagi rivoyatlar” [Husniddinov, 2004; 219]. Lekin, bu mumtoz adabiyotdagi rivoyat janri bilan bir xil tushuncha emas.

Hadislarning badiiy talqiniga bag‘ishlangan arba’in janrining badiiy xususiyatlari bilan rivoyat janrining badiiy xususiyatlar o‘xshash. Sababi – hadislar asosan rivoyat va hikoyatlar orqali keng ommaga tushuntirilgan. Arba’in janri bo‘yicha ish olib borgan M.Po‘latova arba’inning badiiy xususiyatlari haqida shunday deydi: “Arba’inda quyidagi badiiy vositalar amal qiladi: tilning lo‘ndaligi, ochiqligi, axborotning aniq va ravshan uzatilishi, fikrning ochiq ifodalanishi, ilohiy mohiyat mazmunini o‘zgartirmasdan berilishi; matnning oson yod olinishi, tafakkurga tez singishi va qabul qilinishi; asar tilining jimjimadorligi, bezak, badiiy vositalardan mumkin qadar ozodligi, sodda, xalq tiliga yaqinligi va oson tushunarli ekanligi; qisqa mazmunning ravshan ifoda orqali berilishi; arba’in shoir mahorati mevasi ekanligi, har bir talqinning o‘ziga xos badiiy va uslubiy xususiyatlari” [Pulatova, 2020; 57]. Badiiyatga xos mazkur belgilar “Nahj-ul-farodis” asaridagi rivoyatlarda ham ko‘rinadi, jumladan: “Taqi bir rivoyatta andog‘ aydi kim: Dunyo ishlaridin taqi oxirat ishlaridin ul soat ichinda Haq ta’olodin mu’min musulmon qul tilakini tilasa, albatta Haq ta’olo ul tilaklarini ruzi qilur taqi duolarini mustajob qilur. Taqi bu soat qamug‘ tun ichinda bar turur, tep aydi. Payg‘ambar ‘as ul soatni bayon qilmadi kim tunnung avvalinda tep, yo taqi o‘rtasinda dep, ul ma’ni uchun bayon qilmadi kim ol soatni istaguvchilar tunnung tamomini oyog‘liq birla toat va ibodat birla kechursunlar, tep bayon qildi, temishlar” [Eckmann, 1995; 216]. Ushbu rivoyat poetik jihatdan yaxshi kompozitsion tuzilishga ega, boshlanishda muallif so‘zi: “*Taqi bir rivoyatta andog‘ aydi kim...*” va undan keyin muammoning berilishi hamda rivoyatning asosiy mazmuni bir jumlada ochib berilmoqda. Bu esa o‘quvchida rivoyatning davomiga qiziqish uyg‘otmoqda (u soat qaysi soat ekanligi to‘g‘risida qiziqadi). Keyingi gap orqali muammo yechilib, fikr ham xulosalanadi va bu bilan rivoyat mantiqan yakunlangan – badiiy butunlikka erishilgan.

Muallif tomonidan rivoyat deb aytilayotgan hadislarining muallifi mavjud va uni hadis qoidasiga bino Mahmud Ali ko‘rsatib ketmoqda. Shunday ekan, asarda keltirilayotgan barcha hadislarining sharhiga bag‘ishlangan rivoyatlarga yozma adabiyotdagi tarixiy rivoyatlar deb qarash mumkin. Shuni ham ta’kidlash joizki, “Nahj ul-farodis” asarida keltirilgan hadislar bilan bir xil mazmunli rivoyatlarni hadislardan farqlash zarur. Muallif har faslda bitta hadis keltiradi va u arab tilida beriladi, undan so‘ng shu hadisning ma’nosi rivoyat va hikoyatlar bilan tushuntiriladi. Shu o‘rinda boshqa bir hadisning mazmunini ifodalovchi yoki muallifning ayrim o‘zgarishlar

bilan hadisni keltirishi kabi holatlari ham uchraydi. Bunday hadislarining bayoniga nisbatan hadis deb qarash to'g'ri emas, ularni rivoyat deb atagan ma'qul.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, musulmon Sharqi adabiyotida mazmun-mohiyat jihatidan agiogarfik asarlar qadimdan mavjud bo'lsa-da, bunday turdagi asarlarga nisbatan "sira", "qissa", "holat", "tabaqot", "manqaba", "manoqib", "maqoma", "taskira", "risola", "shajara", "tarix" kabi janriy istilohlar qo'llangan va bu istilohlardan har birining alohida janriy xususiyatlari mavjud. Lekin ularning barchasini birlashtirib turuvchi shunday xususiyatlar borki, ularni e'tiborga olgan holda, bu turdagi asarlarni diniy-didaktik yoki agiografik asarlar deb nomlash o'rinli. Xususan, agiografik adabiyotning boshqa turdagi adabiyotlardan farqli xususiyatlari to'g'risida rus olimi N.Y. Chalisava quyidagicha ta'riflaydi: "Agiografiyalar ularda avliyoning biografiyasiga oid elementlar mavjudligi tufayli tarixiy (asarlar)dir, axloqiy masalalarga to'g'ri javoblarning namoyish etilishi nuqtayi nazaridan ular nazariy asarlardir va janr nuqtayi nazaridan yondashilganda badiiy nasr (namunalari) bo'lganligi va dindorlarga chuqur emotsional ta'sir ko'rsatishi tufayli poetik (asarlar)dir" [Chalisava, 1989; 140]. Shunday ekan, bu yo'nalishga mansub asarlarni birlashtirib turuvchi jihati muqaddaslik xususiyatidir. Bundan tashqari, agiografik mazmundagi asarlarni hikoyat, rivoyat kabi badiiy janrlar bilan ham ifodalash ko'plab uchraydi, lekin bu janrlar agiogrif asarlar tarkibida kelsa, payg'ambarlar va avliyolarning hayoti hamda qilgan ishlarini, shuningdek, karomatlarini o'quvchiga tushuntirib berish, ma'lumot berish maqsadida qo'llanilgan.

Hikoyat janri diniy aqidalarning hayotga yetib borishida va kitobxonlarga diniy tushunchalar bilan birga badiiy ozuqa berishda katta ro'l o'ynaydi. Xususan, "Nahj ul-farodis" asaridagi hikoyatlar o'zbek adabiyotida shu turkumdagi hikoyatchilik rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Rivoyatlar kompozitsion jihatdan sodda syujet tuzilishiga ega bo'ladi. Bu janrga oid asarlarda estetik funktsiya emas, balki biror narsa-hodisa yoki tarixiy shaxs haqida ma'lumot berish vazifasi ustuvorlik qiladi. Ba'zi rivoyatlarda tarixiy shaxs hayotining epik talqini o'ziga xos tayyor badiiy qolip, ya'ni "sayyor syujet" asosida hikoya qilinadi. Bunday rivoyatlarda tarixiy shaxslar hayotining muhim bir jihati hikoya qilinib (Muhammad (s.a.v)ga oid hikoyalar singari), voqealik bayoni aniq tarixiy faktlarning yoki teologik tushunchalarning badiiy tasvir obyektiga aylantirilgan bayonidan iborat. Demak, tarixiy rivoyatlar tarkibida "agiografik rivoyatlar" deb ataluvchi yana bir yo'nalish mavjuddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurauf, F. (2013). *O'zbek adabiyoti namunalari*. Toshkent: "Mumtoz so'z" nashriyoti.
2. Attor, F. (2013). *Tazkirat ul-avliyo*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
3. Baranov, X.K. (1962). *Arabsko – russkiy slovar*. Moskva: Gosudarstvennoye izdatel'stvo inostrannykh i natsional'nykh slov.
4. Burslan, K. (2010). Nehe-ül-Feradis'ten Derlenen Türkçe Sözlər. *Türkiyat Mecmuası*, 4, 169–250.

5. Eckmann, J. (1995). *Nehcü'l-ferâdis* (II metn). Ankara: Türk dil kurumi yayinlari.
6. Grekov, B.D., & Yakubovskiy, A.Y. (1956). *Oltin O'rda va uning qulashi*. Toshkent: "O'quv-pedagogika" davlat nashriyoti.
7. Husniddinov, Z. (Tahr.). (2004). *Islom ensiklopediyasi* (A-H). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
8. Jo'raboyev, O. (2017). *Matnning matnosti sirlari* (Monografiya). Toshkent: "Tamaddun" nashriyoti.
9. Karamanlioğlu, A.F. (1955). Nehcü'l-feradis'e Dair. *Türk Dili: Aylık Fikir ve Edebiyat Dergisi*, 4(45), 556–558.
10. Karamatov, X. (1993). *Qur'on va o'zbek adabiyoti*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
11. Köprülü, M.F. (1926). *Türk Edebiyatı Tarihi*. Istanbul: Millî Matbaa.
12. Kurbaniyazov, M.A. (2019). XIV asr o'zbek adabiyotida hikoyat janri taraqqiyoti ("Qissasi Rabg'uziy" misolida). *Filol. fan. dok. diss.* Qarshi: Qarshi davlat universiteti.
13. Kuyma, E. (2015). Harezm Dönemi Türkçesi ve Eserlerine Genel Bir Bakış. *Hitit Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi*, 8(1), 367–383.
14. Mahmudmurodov, Sh. (2010). *Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarining til xususiyatlari tahlili haqida* (X-XIV asrlar yozma yodgorliklari) (Monografiya). Samarqand.
15. Nazarov, B. (2009). *Tasavvuf adabiyoti janrlari*. Toshkent: "Mumtoz so'z" nashriyoti.
16. Nazarov, B.N. (2000). Islom agiografiyasi tizimida maqomatning o'rne va uning badiiy-uslubiy xususiyatlari (Bahouddin Naqshband maqomatlari asosida). *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent.
17. Nuriyeva, F. (2004). Formirovanie i funktsionirovanie tyurko-tatarskogo literaturnovo yazika perioda Zolotoy Ordi. *Avto-ref. diss. dok. filol. nauk.* Kazan: Yaziki narodov Rossiyskoy Federatsii.
18. Pulatova, M.R. (2020). Sharq mumtoz adabiyotida "arba'in" yozish an'analari (Jomiy, Navoiy va Fuzuliy asarlari misolida). *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent: Toshkent davlat sharq-shunoslik universiteti.
19. Qidir, T.Y. (2018). *Deshti qipshaq dalasindag'i islami adebiyoti* (X-XV) (Islam, iman jene ixxsan masalelerini jirlanu yerekshelikleri) (Monografiya). Astana: "Ruxani qundiliqtardi qoldau qori" korporativtik qori.
20. Qoshg'ariy, M. (1963). *Devonu lug'otit turk*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
21. Quronov, D. (2019). *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Toshkent: "Noshir" nashriyoti.
22. Quronov, D., Mamajonov, Z., & Sheraliyeva, M. (2013). *Adabiyotshunoslik lug'ati*. Toshkent: "Akademnashr" nashriyoti.
23. Rahmonov, N. (2007). *O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari* (XIV-XV asrning boshlari) (2-j.). Toshkent: "Fan" nashriyoti.
24. Rahmonov, N. (2016). *O'zbek adabiy tarixi* (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). Toshkent: "Sano-standart" nashriyoti.
25. Rahmonov, N., & Boltaboyev, H. (2003). *O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari* (1-j.). Toshkent: "Fan" nashriyoti.
26. Salakhova, I.I. (2015). Arabskie zaimstvovaniya v tyurko-tatarskom pamyatnike XIV veka "Naxdj al-faradis" Maxmuda al-Bulgari. *Avto-ref. diss. kand. filol. nauk.* Kazan: Kazanskiy (Privolzhskiy) federal'nyy universitet.
27. Sayfedinova, E.G. (2018). *Istochniki religioznoy misli v Zolotoy Orde* (po materialam proizvedeniya "Naxdj al-faradis" Maxmuda al-Bulgari) (Monografiya). Kazan: Institut istorii imeni Sh.Mardzhani.
28. Toparli, R., & Argunshah, M. (2008). Mü'inü'l-mürid. Ankara: Türk Dil Kurumu.
29. Xo'jayev, T.R. (1995). Nuh obrazining poetik talqinlari. *O'zbek tili va adabiyoti jurnali*, 1(1), 34–39.
30. Xolmurodov, A. (2008). O'zbek qissachiligi: taraqqiyot muammolari (XX asr so'nggi cho-ragi). *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent.
31. Yuldosheva, S.A. (2012). Badiiy-biografik qissalar poetikasi ("Qissai Ibrohim Adham",

- “Qissai Sayid Nasimiy”, “Qissai Mashrab” asarlari asosida). *Filol. fan. dok. diss.* Samarqand: Samarqand davlat universiteti.
32. *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.* (2005). (11-j.). Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.
 33. G‘ofurjonova, A. (1981). *O‘tmish o‘zbek nasri haqida.* Toshkent: “Fan” nashriyoti.
 34. Cemiloğlu, I. (1994). *14. Yüzyıla Ait Kısas-ı Enbiya Nüshası Üzerinde Sentaks İncelemesi.* Ankara: Türk Dil Kurumu.

REFERENCES

1. Abdurauf, F. (2013). *Examples of the Uzbek literature.* Tashkent: Publishing House of ‘A Classic Word’.
2. Attor, F. (2013). *Tazkirat ul-Awliya.* Tashkent: Publishing House named after Gafur Ghulam.
3. Baranov, Kh.K. (1962). *Arabic – Russian dictionary.* Moscow: State Publication of Foreign and National Words.
4. Burslan, K. (2010). Turkish Sayings Compiled from ‘Nehc-ul-Feradis’. *Türkiyat Magazine*, 4, 169–250.
5. Cemiloğlu, I. (1994). *Syntax analysis on the 14th century copy of ‘Qisas-ı Anbiya’.* Ankara: Turkish Language Association.
6. Eckmann, J. (1995). *Nehcü’l-ferâdis* (2nd. text). Ankara: Turkish Language Institution Press.
7. Gofurjonova, A. (1981). *The past of the Uzbek prose.* Tashkent: Publishing House of ‘Science’.
8. Grekov, B.D., & Yakubovsky, A.Y. (1956). *The Golden Horde and its fall.* Tashkent: State Publishing House of ‘Teaching and Pedagogy’.
9. Husniddinov, Z. (Ed.). (2004). *Encyclopedia of Islam (A-H).* Tashkent: State Scientific Publishing House of ‘National Encyclopedia of Uzbekistan’.
10. Jurabayev, O. (2017). *Secrets of the text of the text* (Monograph). Tashkent: Publishing House of ‘Civilization’.
11. Karamanlioğlu, A.F. (1955). About Nehcü’l-feradis. *Turkish Language: Monthly Journal of Ideas and Literature*, 4(45), 556–558.
12. Karamatov, H. (1993). *Quran and Uzbek literature.* Tashkent: Publishing House of ‘Science’.
13. Kashgari, M. (1963). *The dictionary is Turkish.* Tashkent: Publishing House of ‘Science’.
14. Khojayev, T.R. (1995). Poetic interpretations of the image of Noah. *Journal of Uzbek language and literature*, 1(1), 34–39.
15. Kholmurodov, A. (2008). Uzbek short story: problems of development (Last quarter of XX century). *DSc thes. philol. scien.* Tashkent.
16. Kidir, T.Y. (2018). *Deshti qipchaq is a doctrine of Islamic ideals (X-XV)* (Islam, faith in the world) (Monograph). Astana: Rukhani kundiliktardi koldau kari.
17. Köprülü, M.F. (1926). *History of Turkish literature.* Istanbul: National Printing House.
18. Kurbaniyazov, M.A. (2019). The development of the narrative genre in the Uzbek literature of the 14th century (in the case of ‘The Story of Rabguzi’). *DSc thes. philol. scien.* Karshi: Karshi State University.
19. Kuronov, D. (2019). *Basics of literary theory.* Tashkent: Publishing House of ‘Publisher’.
20. Kuronov, D., Mamajonov, Z., & Sheraliyeva, M. (2013). *Dictionary of literary studies.* Tashkent: Academic Publishing House.
21. Kuyma, E. (2015). A general overview of Khwarezmian period Turkish and its works. *Hitit University Social Sciences Institute Journal*, 8(1), 367–383.
22. Mahmadmurodov, Sh. (2010). *On the analysis of language characteristics of ancient Turkic written monuments* (Written monuments of X-XIV centuries) (Monograph). Samarkand.
23. *National encyclopedia of Uzbekistan.* (2005). (Vol. 11). Tashkent: State Scientific Publishing

- House of 'National Encyclopedia of Uzbekistan'.
24. Nazarov, B. (2009). *Genres of mystical literature*. Tashkent: Publishing House of 'A Classic Word'.
 25. Nazarov, B.N. (2000). The role of maqamat in the system of Islamic hagiography and its artistic and stylistic features (based on the maqamats of Bahauddin Naqshband). *DSc thes. philol. scien.* Tashkent.
 26. Nurieva, F. (2004). Formation and functioning of the Turkic-Tatar literary language of the Golden Horde period. *Abs. DSc thes. philol. scien.* Kazan: Languages of the peoples of the Russian Federation.
 27. Pulatova, M.R. (2020). Traditions of writing 'arba'in' in Eastern classical literature (for example, the works of Jami, Navoi and Fuzuli). *DSc thes. philol. scien.* Tashkent: Tashkent State University of Oriental Studies.
 28. Rahmanov, N. (2016). *Uzbek literary history* (from the earliest times to the first half of the 15th century). Tashkent: Publishing House of 'Sano-standard'.
 29. Rahmonov, N. (2007). *Samples of Uzbek classic literature* (Early XIV-XV centuries) (Vol. 2). Tashkent: Publishing House of 'Science'.
 30. Rahmonov, N., & Boltaboyev, H. (2003). *Samples of Uzbek classical literature* (Vol. 1). Tashkent: Publishing House of 'Science'.
 31. Salakhova, I.I. (2015). Arabic Borrowings in the Turko-Tatar Monument of the 14th Century 'Nakhj Al-Faradis' by Mahmud Al-Bulgari. *Abs. cand. diss. philol. scien.* Kazan: Kazan (Volga region) Federal University.
 32. Sayfedinova, E.G. (2018). *Sources of religious thought in the Golden Horde* (based on the work 'Nahj al-Faradis' by Maksrud al-Bulgari) (Monograph). Kazan: Institute of History named after Sh. Mardzhani.
 33. Toparli, R., & Argunşah, M. (2008). *Mü'inü'l-mürîd*. Ankara: Turkish Language Association.
 34. Yuldasheva, S.A. (2012). Poetics of artistic and biographical stories (based on the works of 'Qissai Ibrahim Adham', 'Qissai Syed Nasimi', 'Qissai Mashrab'). *DSc thes. philol. scien.* Samarkand: Samarkand State University.